JORJ ORUELLNING “MOLXONA” (“ANIMAL FARM”) ASARIDA KELTIRILGAN BADIIY TASVIR VOSITALARI NAMUNALARI

Nizomova Feruza Muhammadjon qizi
Is’hoqxon To’ra Ibrat nomidagi
Namangan davlat chet tillari instituti talabasi
+998973731211
nizomovaferuza70@gmail.com

ANNOTATSIYA. *Ushbu maqolada ingliz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Jorj Oruellning mashhur “Molxona” (“Animal Farm”) asarida qo‘llangan badiiy tasvir vositalari xususan, epitet, metafora, taqqoslash, jonlantirish, kinoya, ramz, allegoriya kabi poetik vositalarning badiiy-estetik hamda g‘oyaviy funksiyasi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy tasvir vositalari, epitet, metafora, taqqoslash, jonlantirish, kinoya, allegoriya, ramz, siyosiy satira*

ABSTRACT. *This article analyzes the figurative and stylistic devices used in George Orwell’s famous work Animal Farm, one of the outstanding representatives of English literature. In particular, it examines the artistic-aesthetic and ideological functions of such poetic devices as epithet, metaphor, simile, personification, irony, symbolism, and allegory employed in the novel.*

Keywords: *figurative and stylistic devices, epithet, metaphor, simile, personification, irony, allegory, symbolism, political satire*

KIRISH

XX asr ingliz adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutgan yozuvchilardan biri Jorj Oruell (asl ismi Eric Arthur Blair) o‘z ijodida jamiyat, siyosat, hokimiyat, erkinlik va adolat masalalarini chuqur badiiy tahlil qilgan adiblardan biri hisoblanadi. Adib 1903-yil 25-iyunda Motihari, Bengal, Britaniya Hindistoni (hozirgi Hindiston hududi) da tug’ilgan. Uning eng mashhur asarlaridan biri bo‘lgan „Molxona” (“Animal Farm”) 1945-yilda yaratilgan bo‘lib, qisqa hajmiga qaramay, o‘zida katta siyosiy, ijtimoiy va falsafiy mazmunni mujassamlashtirgan asardir. Mazkur asar ko‘pincha siyosiy satira, allegorik qissa va distopik ruhdagi badiiy asar sifatida talqin qilinadi. Asarda fermadagi hayvonlar obrazi orqali inson jamiyatidagi hokimiyat uchun kurash, adolatsizlik, manipulyatsiya, yolg‘on targ‘ibot va totalitar tuzumning shakllanish jarayoni ochib beriladi. Biroq asarning badiiy qiymati faqat uning g‘oyaviy mazmuni bilan emas, balki yozuvchi tomonidan mahorat bilan qo‘llangan badiiy tasvir vositalari bilan ham belgilanadi. Adabiy asarning ta’sirchanligi va badiiy kuchi ko‘p

jihatdan unda qo‘llangan poetik vositalarga bog‘liq bo‘ladi. Ayniqsa, Orwell kabi yozuvchilar obraz, voqea va g‘oyalarni kitobxon ongiga chuqurroq singdirish uchun epitet, metafora, taqqoslash, jonlantirish, kinoya, ramz va allegoriya kabi vositalardan keng foydalanadilar. „Molxona” asari ham shu jihatdan tahlil qilishga arzigulik boy badiiy qatlamga ega.

ASOSIY QISM

George Orwellning „Molxona” asari badiiy jihatdan sodda tilda yozilgandek tuyulsa-da, unda ko‘plab badiiy tasvir vositalari jamlangan. Bu vositalar asarning nafaqat estetik qiymatini oshirishga, balki undagi ramziy, satirik va siyosiy ma’nolarni ham chuqurroq anglab yetishga yordam beradi. Quyida asarda uchraydigan eng muhim badiiy tasvir vositalari misollar asosida ko’rishimiz mumkin. **Allegoriya (Allegory)** „Molxona” asarining butun badiiy tuzilishi aslida allegoriyaga asoslangan. Allegoriya - bu abstrakt g‘oya yoki tarixiy-siyosiy voqelikni ramziy obrazlar orqali ifodalash usuli hisoblanadi. Asarda: ferma - davlat yoki jamiyat modeli, hayvonlar - turli ijtimoiy qatlamlar, Napoleon - zolim hokimiyat, Snowball - islohotchi kuch, Squealer - propaganda vositasi, Boxer - mehnatkash xalq, Moses - diniy tasalli/yaxshi kunlar bo’lishiga ishonch, itlar - zo‘ravon kuch timsoli sifatida tasvirlangan. Asarda „All animals are equal, but some animals are more equal than others” (Barcha hayvonlar teng, ammo ayrim hayvonlar boshqalardan ko‘ra tengroq) degan jumla orqali yozuvchi totalitar jamiyatlardagi soxta tenglik g‘oyasini va hayvonlar dunyosi orqali real siyosiy tuzumni tanqid qiladi. **Ramz (Symbol / Symbolism) -** bu biror narsa, obraz, rang, predmet, voqea yoki hodisa orqali undan kengroq, chuqurroq ma’noni ifodalash usulidir. Ramzda obrazlilik turi mohiyatan allegoriyaga yaqin turadi, faqat uning farqli jihati shundaki, ramz ko’pincha kontekst doirasida ham o’z ma’nosida ham ko’chma ma’noni ifodalaydi. Asarda ko‘plab ramziy obraz va predmetlar mavjud bo‘lib, ular chuqur ma’noni ifodalaydi. Asardagi asosiy ramzlar: Shamol tegirmoni - taraqqiyot va yolg‘on va’da ramzi, Yetti buyruq - adolat va qonun timsoli, Sut va olmalar - imtiyoz va tabaqalanish ramzi, Napoleonning qamchisi - hokimiyat va zulm ramzi, Sugarcandy Mountain - yolg‘on tasalli va xayoliy najot ramzi sifatida ifodalangan. Shamol tegirmoni asarda dastlab taraqqiyot va farovonlik timsoli sifatida ko‘rsatiladi, ammo keyinchalik u hayvonlarni aldash va yanada ko‘proq mehnatga majbur qilish vositasiga aylanadi. Demak, ramzlar orqali Orwell siyosiy manipulyatsiya va ijtimoiy aldov yo’llarini ko‘rsatadi. **Epitet (Epithet)** - bu obraz yoki predmetning muhim belgisini ta’sirchan ifoda orqali ko‘rsatadigan badiiy vosita hisoblanadi. Asarda qahramonlar ko‘pincha ularning xarakterini ochib beruvchi sifatlovchi birliklar bilan tasvirlanadi. Misollar: “Qari Mayor”, “bahaybat, kuchli va dadil Napoleon”, “mukofotdor oq to‘ng‘iz”, “mehribon Klover”, “mehnatkash Boxer”. Masalan, “bahaybat, kuchli va dadil Napoleon”

birikmasi Napoleonning tashqi qiyofasi bilan birga uning ichki hukmron xarakterini ham ifodalaydi. “Qari Mayor” birikmasi esa qahramonning yoshi, tajribasi va hurmatli mavqeini ko‘rsatadi. Epitetlar asarda obrazlarni yanada jonli va esda qolarli qilishga xizmat qiladi. **Metafora (Metaphor)** - biror narsa yoki hodisani boshqa bir obraz orqali ko‘chma ma’noda ifodalash hisoblanadi. “Molxona” asarida ayrim voqealar va tasvirlar ko‘chma ma’no yuklaydi. “Ularning maqsadlari sarobga aylanaveradi.”(maqsadlar – sarobga aylanishi), “Ishtahasi karnay edi.”(ishtaha karnayga o’xshatilishi- cho’chqalarga tegishli jumla), “Yetimlar otasi-yu, baxtimiz quyoshisiz...”(baxt quyoshi – Napalion haqidagi baytda ketirilgan). Undan tashqari Cho‘chqalarning ikki oyoqda yurishi - bu oddiy harakat emas, balki ularning to‘liq ma’noda odamlar kabi zolim kuchga aylanganligi metaforasidir. Orwell metafora orqali hokimiyatning tabiatini, inqilobning buzilishini va insoniy illatlarning hayvonlar obraziga ko‘chishini ifodalab bergan. **Taqqoslash (Simile / Comparison)** - badiiy tasvir vositasi sifatida bir obraz yoki holatni boshqa bir narsa bilan qiyoslash orqali ifodalanadi. “Molxona” asarida ochiq shakldagi taqqoslashlar ko‘p bo‘lmasa-da, ayrim holatlarda qahramonlar va vaziyatlar o‘zaro qiyosiy asosda beriladi. “Lekin bu safar ‘Molxona janggi’dagi kabi g‘alaba osonlik bilan kelmadi.” Bu jumlada “kabi” orqali ikki vaziyat qiyoslanmoqda. Asar oxirida cho‘chqalar bilan odamlar o‘rtasidagi o‘xshashlik shunday darajada kuchayadiki, **„hayvonlar cho‘chqa bilan odamni ajrata olmay qoladilar.”** Bu taqqoslash orqali muallif shuni ko‘rsatadiki, hokimiyatga kelgan yangi tabaqa aslida avvalgi zulm egalari bilan bir xil mohiyatga ega bo‘lib qolgan edi. **Jonlantirish (Personification)** - jonsiz narsalar yoki hayvonlarga insoniy sifat va xususiyatlar berishdir. “Molxona” asarining eng asosiy poetik xususiyatlaridan biri ham aynan shudir. Asardagi barcha hayvonlar gapiradi, o‘ylaydi, qaror qabul qiladi, siyosiy fikr yuritadi, qo‘zg‘olon ko‘taradi. Masalan hayvonlarning yig‘ilish o‘tkazishi, qo‘shiq kuylashi, qonun yozishi, nutq so‘zlashi jonlantirishning yorqin namunalaridir. Jonlantirish orqali Orwell hayvonlar dunyosini inson jamiyatining yaqqol aksini ochib berdi. **Kinoya (Irony)** - aytilgan fikr bilan haqiqiy ma’no o‘rtasidagi qarama-qarshilikka asoslangan badiiy vositadir. Odatda qochiriq, kesatiq ma’nolarida aytilgan so’zlar kinoya hisoblanadi. “Molxona” asari boshidan oxirigacha kinoyaviy ruh bilan yozilgan. Masalan: Spirtli ichimliklarni ,,ortiqcha” ichish man etilsin - avval ichimlik ta’qiqlangan edi, keyin “ortiqcha” degan so‘z qo‘shildi. Bu hokimiyatning qonunni o‘ziga moslab o‘zgartirishi ustidan kinoyadir. “All animals are equal, but some animals are more equal than others.”(hamma hayvonlar teng ammo ba’zi hayvonlar boshqalardan loyiqroq) – aynan shu jumla orqali asarning butun haqiqati ochilgan. Jumlada “tenglik” haqida gap boryapti ammo aslida tengsizlik oqlanadi. Bu juda kuchli siyosiy kinoya hisoblanadi. Hayvonlar kurashgan o’sha ,,tenglik”, ,,erkinlik” o’zi aslida avvalgidan ham og‘irroq

zulmga yetaklab bordi. Bu kinoya Orwellning asardagi asosiy tanqidiy qurolidir. **Satira (Satire) -** voqelikdagi salbiy hodisalar, ijtimoiy illatlar, axloqiy nuqsonlar yoki siyosiy adolatsizliklarni kulgi va keskin tanqid vositasida fosh etuvchi badiiy ifoda usuli hisoblanadi. Asarning umumiy badiiy ruhi satirik xarakterga ega. Satira orqali Orwell hokimiyatni, yolg‘on va’dalarni, siyosiy manipulyatsiyani, soxta tenglikni, adolatsizlikni achchiq kulgi va kinoya bilan tanqid qiladi. Ayniqsa, Cho‘chqalarning avval odamlarni yomonlab, keyin aynan odamlar kabi yashay boshlashi kuchli satirik holatni namoyish qiladi. Bu orqali Orwell inqilobiy shiorlar ortida yashiringan manfaatparastlikni ham fosh etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Jorj Oruellning “Molxona” (“Animal Farm”) asari badiiy tasvir vositalariga boy bo‘lgan yuksak poetik va g‘oyaviy asarlardan biri hisoblanadi. Asarda qo‘llangan allegoriya, ramz, epitet, metafora, taqqoslash, jonlantirish, kinoya, takror va satira kabi vositalar asarning nafaqat badiiy-estetik qimmatini oshiradi, balki uning chuqur siyosiy va ijtimoiy mazmunini ham yoritishga yordam beradi. Tahlil natijasida shuni ko‘rish mumkinki, Orwell badiiy tasvir vositalaridan juda mahorat bilan foydalangan. Ayniqsa, hayvonlar obrazi orqali inson jamiyatidagi hokimiyat uchun kurash, propaganda, totalitar boshqaruv, ijtimoiy tengsizlik va erkinlikning cheklanishi kabi murakkab masalalarni sodda, ammo kuchli badiiy shaklda ifodalashga erishgan. Shuningdek, asarda badiiy tasvir vositalari oddiy bezak vazifasini emas, balki asarning mazmuniy, g‘oyaviy va ramziy qatlamini ochuvchi asosiy badiiy tasvir vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli “Molxona” asari nafaqat siyosiy satira va allegorik qissa, balki poetik jihatdan ham yuksak badiiy asar sifatida alohida ilmiy tadqiqotga loyiqdir. Demak, Orwellning “Molxona” asari misolida badiiy tasvir vositalari adabiy matnning ta’sirchanligi, estetik kuchi va g‘oyaviy chuqurligini ta’minlovchi muhim unsurlardan biri ekanligiga yana bir bor guvoh bo’la oldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Oruell, J.** *Molxona* (*Animal Farm*). O‘zbek tiliga tarjima qilingan nashr.
2. **Orwell, George.** *Animal Farm: A Fairy Story*. London: Secker and Warburg, 1945.
3. **Crick, Bernard.** *George Orwell: A Life*. London: Penguin Books, 1980.
4. **Quronov, D.** *Adabiyotshunoslikka kirish*. Toshkent: Akademnashr, 2010.
5. **Boboyev, T.** *Adabiyotshunoslik asoslari*. Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
6. **Yo‘ldoshev, Q.** *Badiiy matn va uning tahlili*. Toshkent: Fan, 2007.
7. **Abrams, M. H.** *A Glossary of Literary Terms*. Boston: Wadsworth, 2012.
8. **Cuddon, J. A.** *A Dictionary of Literary Terms and Literary Theory*. Oxford: Blackwell, 2013.

9. **Galperin, I. R.** *Stylistics*. Moscow: Higher School Publishing House, 1977.
10. **Bloom, Harold (ed.).** *George Orwell's Animal Farm*. New York: Chelsea House Publishers, 2006.
11. **Britannica.** "George Orwell." Available at: https://www.britannica.com
12. **SparkNotes.** "Animal Farm: Themes, Symbols, and Literary Devices." Available at: https://www.sparknotes.com

